

CASUAL USLUBI. QULAYLIK VA ZAMONAVIYLIKNING MUKAMMAL UYG‘UNLIGI.**Asadullayeva Nodira Xasanboy qizi***Namangan Texnika Universiteti “Dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi*Khasanboyevna.n@gmail.com**Akramova Mahinabonu Bahromjon qizi***Namangan Texnika Universiteti 1-bosqich talabasi*mahina413@icloud.com**Nabiyeva Muborakhon Sanjarbek qizi***Namangan Texnika Universiteti 1-bosqich talabasi*muboraknabiyeva30@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada casual uslubining asosiy xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari yoritilgan. Casual – bu kundalik kiyinishda qulaylik va erkinlikni ta’minlovchi kiyim uslubi bo‘lib, uning minimalizm, tabiiy ranglar va funktsionallik kabi muhim jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada casual uslubining boshqa kiyinish yo‘nalishlari bilan kombinatsiya qilish imkoniyatlari, yetakchi dizaynerlar va brendlar tomonidan rivojlantirilishi haqida ma’lumot berilgan. Uslubning yutuqlari va cheklovlari muhokama qilinib, uning zamonaviy hayotdagi dolzarbligi ta’kidlangan. Mazkur maqola casual uslubi haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lishni va uni kundalik kiyinishda muvaffaqiyatli qo‘llashni istaganlar uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Minimalizm, street style, garderob, casual, boho uslubi, aksessuarlar, kiyimning funktsionalligi, dizaynerlar va brendlar, ko‘p qirrali kombinatsiyalar, pastel ranglar, moda trendlari, shaxsiy did.

Abstract. This article explores the key features, advantages, and disadvantages of the casual style. Casual fashion is a clothing style that ensures comfort and freedom in everyday wear, emphasizing minimalism, natural colors, and functionality. The article also discusses how casual style can be combined with other fashion trends, as well as its development by leading designers and brands. The strengths and limitations of the style are examined, highlighting its relevance in modern life. This article serves as a useful guide for those looking to understand casual fashion and successfully incorporate it into their daily wardrobe.

Key words. Minimalism, street style, wardrobe, casual, boho style, accessories, clothing functionality, designers and brands, versatile combinations, pastel colors, fashion trends, personal taste.

KIRISH. Casual uslubi – bu kundalik kiyinishning eng qulay va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri. Bu uslub bejirimlik va erkinlikni o‘z ichiga oladi hamda kundalik hayotda har qanday vaziyatga mos kelishi bilan ajralib turadi. Casual uslubi orqali inson o‘z shaxsiy didi va qulayligini birlashtira oladi.[1]

Casual uslubining asosiy xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Qulaylik – Bu uslubda eng muhim jihatlardan biridir. Kiyim tanlashda materiallarning sifatiga e‘tibor qaratish, havo o‘tkazuvchi va harakatlanish uchun qulay bo‘lgan matolarni tanlashga ahamiyat berish lozim.
2. Ko‘p qirrali kombinatsiyalar – Casual uslubi turli kiyimlarni bir-biriga moslab kiyish imkonini beradi. Masalan, futbolka va jinsi shim, yoki kofta va sport krossovkalari, hudi va organza matosidan tikilgan yubkalar yaxshi kombinatsiya hosil qiladi.
3. Minimalizm va tabiiy ranglar – Rangi juda yorqin bo‘lmagan, tabiiy yoki pastel ranglar casual uslubining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular klassik va zamonaviy ko‘rinish yaratadi va obrazga mukammallik baxsh etadi.
4. Garderobdagi asosiy kiyim assortimentlari – Har bir kishining casual uslubidagi garderobida bo‘lishi kerak bo‘lgan kiyimlar qatoriga jinsi shimlar, futbolka, sviterlar, sport poyabzallari, ko‘ylaklar va yengil kurtkalar kiradi.

Casual uslubini yaratishda funksionallikka urg‘u berish lozim. Quyida obraz bo‘yicha bir necha tavsiyalar berib o‘tilgan:

- To‘g‘ri o‘lcham tanlang – Juda keng yoki juda tor kiyimlardan qochish kerak, chunki ular nafaqat noqulaylik tug‘diradi, balki tashqi ko‘rinishni ham buzishi mumkin.
- Aksessuarlarga e‘tibor bering – Oddiy kiyimlarga mos ravishda soat, bilaguzuk yoki sumka kabi aksessuarlarni qo‘shish mumkin.
- Poyabzal tanlash muhim – Casual uslubda sport krossovkalari yoki zamonaviy mokasinlar mukammal variant bo‘lishi mumkin.[2]

Qaysi uslublar bilan kombinatsiya qilish mumkin?

Casual uslubi turli kiyinish yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashishi mumkin:

- Sport uslubi (Athleisure) – Sport kiyimlarini casual elementlar bilan birlashtirish (masalan, klassik jinsi shim va sport krossovkalari yoki hoodie va zamonaviy poyabzal kombinatsiyasi).
- Smart Casual – Rasmiylikni saqlagan holda qulay kiyinish (masalan, blazer va jinsi shim, klassik ko‘ylak va krossovka kombinatsiyasi).
- Street Style – Urban modasi va casual uslubining uyg‘unlashuvi. Bunda logotipli kiyimlar, keng shimlar va sport aksessuarlari ishlatiladi.
- Boho Casual – Erkin, yengil va tabiiy materiallardan tikilgan kiyimlar, keng yengli ko‘ylaklar yoki sandalilar bilan uyg‘unlashgan casual obraz yaratish.

Casual uslubida ish olib boruvchi dizaynerlar: Casual uslubida ko‘plab mashhur brendlar va dizaynerlar ish olib boradi.[3] Quyidagilar eng mashhurlaridan hisoblanadi:

- Ralph Lauren – Klassik va casual kiyim uslubini bo‘yicha yetakchi dizaynerlardan biri.
- Tommy Hilfiger – Amerika casual uslubiga oid sport va zamonaviy kiyim dizaynlari bilan mashhur.
- Virgil Abloh (Off-White) – Street style va casual elementlarini birlashtirgan innovatsion dizayner.
- Stella McCartney – Ekologik toza materiallardan casual kiyimlar ishlab chiqaruvchi yetakchi dizaynerlardan biri.
- Alexander Wang – Casual va urban uslubini uyg‘unlashtirgan moda dizayneri.
- Levi’s – Jinsi shimlar va casual kiyimlarning asosiy yetakchilaridan biri.
- Nike va Adidas – Sport va casual uslubini o‘z ichiga olgan brendlar, ko‘plab dizaynerlar bilan hamkorlikda ishlaydi.

Casual uslubining yutuqlari va kamchiliklari

Yutuqlari:

- Qulaylik va amaliylik – Casual kiyimlar harakat erkinligini ta‘minlab, uzoq vaqt davomida qulaylik beradi.
- Ko‘p qirrali kombinatsiya imkoniyati – Har xil kiyim turlarini bir-biriga moslab, turli obrazlar yaratish mumkin.
- Har qanday yosh va jismoniy holatga mos kelishi – Casual uslubida yoshlar ham, kattalar ham uchun mos keladi.
- Ommaviy brendlarning keng assortimenti – Casual uslubida turli narxlardagi brendlar mavjud bo‘lib, bu har kimga mos variant tanlash imkoniyatini beradi.

Kamchiliklari:

- Rasmiy muhitga mos emas – Casual kiyimlar ba‘zi rasmiy uchrashuvlar yoki tadbirlar uchun mos kelmasligi mumkin.
- Noto‘g‘ri tanlov bilan tartibsiz ko‘rinish – Ba‘zan casual kiyimlarni noto‘g‘ri uyg‘unlashtirish tartibsiz va beparvo ko‘rinishga olib kelishi mumkin.
- Sifat farqlari – Ommaviy brendlar tomonidan ishlab chiqarilgan casual kiyimlar sifati har doim ham yuqori bo‘lmaydi.
- Moda tendensiyalariga bog‘liqlik – Casual uslubida tez o‘zgaruvchi pastel ranglar bog‘liq bo‘lib, doimiy yangilanish talab etishi mumkin.

Xulosa: Casual uslub – bu oddiy, ammo nafis va qulay kiyinish san‘ati. U insonning shaxsiy didini namoyon qilishga va har kuni o‘zini erkin his qilishga yordam beradi. Asosiysi, kiyim tanlashda qulaylik va moslikka e‘tibor qaratish kerak.

Literature

1. <https://tr.uspoloassn.com/blog/casual-ve-smart-casual-giyim-tarzlari/>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Uslub>
3. **Nina Garcia – “The One Hundred: A Guide to the Pieces Every Stylish Woman Must Own”**
4. **Barnard, M. (2014). “Fashion as Communication.”**
5. **Tim Gunn – “Tim Gunn’s Fashion Bible: The Fascinating History of Everything in Personal Style”**
6. **Caroline Joy Rector – “Minimalist Wardrobe: How to Create a Stylish, Functional Wardrobe with Fewer Clothes”**